2026-yil
9-son

“FAN VA TA’LIM YANGILIKLARI”

ILMIY - METODIK

JURNALI

saen.uz

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI

2026-yil
9-son

Bosh muharrir:
Shoumarov G‘ayrat Bahromovich, psixologiya fanlari doktori, akademik

Bosh muharrir o‘rinbosari:
Qodirov Umarali Do‘stqobilovich, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Mas’ul kotib:
Muqimov Alisher

Texnik muharrir:
Qarshiyev Jamshid Murotaliyevich, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.

TAHRIR HAY’ATI:

01.00.00 – FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI
Ayupov Shavkat Abdullayevich, fizika-matematika fanlari doktori, akademik
A’zamov Abdulla, fizika-matematika fanlari doktori, akademik
Zohidov Erkin A’zamovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

02.00.00 – KIMYO FANLARI
Normaxamatov Nodirali Soxobataliyevich, kimyo fanlar doktori, professor
Tojibayev Komiljon Sharobitdinovich, kimyo fanlar doktori, akademik

03.00.00 – BIOLOGIYA FANLARI
Abdurahmonov Ibrohim Yo‘lchiyevich, biologiya fanlari doktori, akademik
Sulaymonov Botirjon Abdushukurovich, biologiya fanlari doktori, akademik

04.00.00 – GEOLOGIYA-MINERALOGIYA FANLARI
Fayziyev Abdulhaq Radjabovich, geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor
Husanov Sultonboy To‘xtayevich, geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor

05.00.00 – TEXNIKA FANLARI
Allayev Qahramon Rahimovich, texnika fanlari doktori, akademik
Majidov Inom Urishevich, texnika fanlari doktori, professor
Turobjonov Sadritdin Maxamatdinovich, texnika fanlari doktori, akademik
Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

06.00.00 – QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI
Namozov Shodmon Ergashovich, qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, akademik
Shoumarov Hikmat Bahromovich, qishloq xo‘jaligi fanlari nomzodi, professor

07.00.00 – TARIX FANLARI
Ziyo Azamat Hamid o‘g‘li, tarix fanlari doktori, akademik
Sagdullayev Anatoliy Sagdullayevich, tarix fanlari doktori, akademik
Yusupova Diloram Yunusovna, tarix fanlari doktori, akademik

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI
Abdurahmonov Qalandar Xodjayevich, iqtisod fanlari doktori, akademik
Musayev Behzod Anvarovich, iqtisod fanlari nomzodi
To‘xliyev Nurislom, iqtisod fanlari doktori, akademik
G‘ulomov Saidahror Saidahmedovich, iqtisod fanlari doktori, akademik

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
9-son

09.00.00 – FALSAFA FANLARI
Nazarov Qiyom Normirzayevich, falsafa fanlari doktori, professor
Saifnazarov Ismoil Saifnazarovich, falsafa fanlari doktori, professor

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI
Mengliyev Baxtiyor Rajabovich, filologiya fanlari doktori, professor
Sirojiddinov Shuhrat Samariddinovich, filologiya fanlari doktori, akademik
Xidirov Rajab Gulmatovich, filologiya fanlari nomzodi, dotsent (Tojikiston)

11.00.00 – GEOGRAFIYA FANLARI
Nigmatov Asqar Nigmatullayevich, geografiya fanlari doktori, professor
Tojiyeva Zulxumor Nazarovna, geografiya fanlari doktori, professor

12.00.00 – YURIDIK FANLAR
Rustamboyev Mirzayusuf Hakimovich, yuridik fanlar doktori, professor
Saidov Akmal Xolmatovich, yuridik fanlar doktori, akademik
Xolmo'minov Jumanazar Toshtemirovich, yuridik fanlar doktori, professor
Qodirov Bobiromon Bekmurodovich, yuridik fanlar doktori, professor

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI
Djurayev Risboy Haydarovich, pedagogika fanlari doktori, akademik
Ibraimov Xolboy, pedagogika fanlari doktori, akademik
Musurmonova Oynisa, pedagogika fanlari doktori, professor
Umarov Bahrom Norboyevich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

14.00.00 – TIBBIYOT FANLARI
Akilov Xabibulla Ataullayevich, tibbiyot fanlari doktori, professor
Nazirov Feruz Gafurovich, tibbiyot fanlari doktori, akademik

15.00.00 – FARMATSEVTIKA FANLARI
Abdullabekova Viloyat Nurillabekovna, farmatsevtika fanlari doktori, professor
Tulaganov Abduqodir Abdurahmonovich, farmatsevtika fanlari doktori, professor

16.00.00 – VETERINARIYA FANLARI
Daminov Asadullo Suvonovich, veterinariya fanlari doktori, professor
Jabborov Shuhrat Abdumajidovich, veterinariya fanlari doktori, professor
G'afurov Aktam G'afurovich, veterinariya fanlari doktori, professor

17.00.00 – SAN'ATSHUNOSLIK FANLARI
Ahmedova Nigora Rahimovna, sanatshunoslik fanlari doktori, professor
Hakimov Akbar Abdullayevich, san'atshunoslik fanlari doktori, akademik

18.00.00 – ARXITEKTURA FANLARI
Nozilov Dodo Avazovich, arxitektura fanlari doktori, professor
Uralov Axtam Sindarovich, arxitektura fanlari doktori, professor

19.00.00 – PSIXOLOGIYA FANLARI
Abdusamatov Hasanboy Usmonjon o'g'li, psixologiya fanlari doktori, professor
Barotov Sharif Ramazonovich, psixologiya fanlari doktori, professor
Karimova Vasila Mamanosirovna, psixologiya fanlari doktori, professor
Halimova Mashraboy Vohidovna, psixologiya fanlari doktori, professor
Lazar Drajeta, psixologiya fanlari doktori, professor, Belgrad, Serbiya
Karpinskiy Konstantin Viktorovich, psixologiya fanlari doktori, professor, Grodno, Belarussiya
Suletbayeva Ella Serikbayevna, psixologiya fanlari doktori, dotsent

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
9-son

22.00.00 – SOTSIOLOGIYA FANLARI
Bekmurodov Mansur Bobomurodovich, sotsiologiya fanlari doktori, professor
Toshmuhamedova Dilorom Gafurdjanovna, sotsiologiya fanlari doktori

23.00.00 – SIYOSIY FANLAR
Fayzullayev Alisher Omonullayevich, siyosiy fanlar doktori, professor
Hasanov Otabek Abdurashidovich, siyosiy fanlar doktori
Paxrutdinov Shukritdin Ilyasovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Omonov Baxtiyor Axtamovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Quronboyev Qahramon Qo'chqorovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Avazov Komil Xolliyevich, siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori

24.00.00 – ISLOMSHUNOSLIK FANLARI
Ibrohimov Ne'matulla, filologiya fanlari doktori, akademik
Islomov Zohidjon Mahmudovich, filologiya fanlari doktori, professor

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
9-son

UDK 37.018.1:316.356.2

Shoumarov G'ayrat Bahromovich,
psixologiya fanlari doktori, akademik

Abduxamidov Sardor Mardanaqulovich,
International school of finance technology and science instituti
"Psixologiya va pedagogika" kafedrasi dotsenti v.b., p.f.f.d. (PhD)

ZAMONAVIY O'ZBEK OILASIDA BOLA TARBIYASI: IJTIMOIY-PEDAGOGIK MUAMMOLAR, ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy o'zbek oilasida bola tarbiyasining ijtimoiy-pedagogik mohiyati, uning mazmuni, oilaviy muhitning bola shaxsini shakllantirishdagi o'rni hamda ota-onalarning pedagogik mas'uliyati ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan holda ota-onalarning pedagogik madaniyatini oshirish, oilada demokratik va hamkorlikka asoslangan muloqotni qaror toptirish, ijobiy intizom tamoyillaridan foydalanish, bolalarning raqamli savodxonligi va media xavfsizligini ta'minlash, "oila-maktab-mahalla" hamkorligini kuchaytirish maqsadida ilmiy-amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: oila, bola tarbiyasi, zamonaviy oila, ota-ona mas'uliyati, oilaviy muhit, pedagogik madaniyat, axloqiy tarbiya, milliy qadriyatlar, ijtimoiylashuv, raqamli tarbiya, media savodxonlik, ijobiy intizom, oila-maktab-mahalla hamkorligi.

ВОСПИТАНИЕ РЕБЕНКА В СОВРЕМЕННОЙ УЗБЕКСКОЙ СЕМЬЕ: СОЦИАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ, СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ И ПУТИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ

Аннотация. В данной статье научно-теоретически проанализированы социально-педагогическая сущность воспитания детей в современной узбекской семье, его содержание, роль семейной среды в формировании личности ребёнка, а также педагогическая ответственность родителей. В целях повышения педагогической культуры родителей, формирования в семье демократического общения, основанного на сотрудничестве, применения принципов позитивной дисциплины, обеспечения цифровой грамотности и медиабезопасности детей, а также укрепления сотрудничества «семья–школа–махалля» разработаны научно-практические рекомендации.

Ключевые слова: семья, воспитание детей, современная семья, ответственность родителей, семейная среда, педагогическая культура, нравственное воспитание, национальные ценности, социализация, цифровое

воспитание, медиаграмотность, позитивная дисциплина, сотрудничество «семья-школа-махалля».

CHILD UPBRINGING IN THE MODERN UZBEK FAMILY: SOCIO-PEDAGOGICAL PROBLEMS, MODERN APPROACHES AND WAYS OF IMPROVEMENT

Abstract. This article provides a scientific and theoretical analysis of the socio-pedagogical essence of child upbringing in the modern Uzbek family, its content, the role of the family environment in shaping the child's personality, and the pedagogical responsibility of parents. Scientific and practical recommendations are proposed to enhance parents' pedagogical culture, establish democratic and cooperation-based communication within the family, apply positive discipline principles, ensure children's digital literacy and media safety, and strengthen cooperation among the "family-school-mahalla".

Keywords: family, child upbringing, modern family, parental responsibility, family environment, pedagogical culture, moral education, national values, socialization, digital parenting, media literacy, positive discipline, "family-school-mahalla" cooperation.

Kirish. O‘zbekiston jamiyatida oila tarixan yuksak ijtimoiy va ma'naviy qadriyat sifatida e'tirof etib kelingan. O‘zbek xalqining tarbiyaviy an'analarida kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, mehr-oqibat, qo‘ni-qo‘shnichilik, mehnatsevarlik, mehmondo‘stlik, vatanparvarlik, or-nomus va mas'uliyat kabi fazilatlarni yosh avlod ongiga singdirish muhim o‘rin egallagan. Shu bilan birga, jamiyatdagi ijtimoiy, iqtisodiy va axborot muhitining o‘zgarishi oilaviy tarbiyaning mazmuni va usullariga yangi talablarni qo‘ymoqda.

Bugungi bola avvalgi avlodlarga nisbatan ancha keng axborot makonida ulg‘aymoqda. U oiladagi tarbiyaviy ta'sir bilan bir qatorda internet, ijtimoiy tarmoqlar, videoplatformalar, kompyuter o‘yinlari, reklama, ommaviy madaniyat va virtual muloqot ta'sirini ham qabul qiladi. Shu sababli zamonaviy ota-onalik faqat bolaning moddiy ehtiyojlarini ta'minlash bilan cheklanib qolmasligi kerak. Ota-ona bolaning axborot muhitini tushunishi, uning ruhiy va ijtimoiy ehtiyojlarini anglay olishi, mustaqil fikrlashini qo‘llab-quvvatlashi hamda raqamli muhitda xavfsiz xulq-atvor ko‘nikmalarini shakllantirishi zarur.

O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksida oilaviy munosabatlarning muhim vazifalaridan biri sifatida bolalar tarbiyasi, ularning farovon hayoti va kamoloti haqida g‘amxo‘rlik qilish masalasi belgilangan [1]. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida esa ota-onalarning farzandlarini voyaga yetguniga qadar boqishi, ularning tarbiyasi, ta'lim olishi, sog‘lom, to‘laqonli va har tomonlama kamol topishi haqida g‘amxo‘rlik qilishi majburiyati mustahkamlangan [2]. Mazkur

normalar bola tarbiyasi faqat ma'naviy burch emas, balki ota-onaning huquqiy va ijtimoiy mas'uliyati ekanini ko'rsatadi.

Shu nuqtayi nazardan, zamonaviy o'zbek oilasida bola tarbiyasini o'rganishda ikki jihatning uyg'unligi muhim ahamiyat kasb etadi. Bir tomondan, milliy tarbiyaviy meros va qadriyatlarni asrab-avaylash, ikkinchi tomondan esa zamonaviy pedagogik, psixologik hamda axborot-kommunikatsion sharoitlarga mos tarbiya modelini shakllantirish zarur. Mazkur masalaning dolzarbligi ham aynan an'anaviy tarbiyaviy qadriyatlar bilan zamonaviy pedagogik yondashuvlar o'rtasidagi maqbul muvozanatni topish ehtiyojidan kelib chiqadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotning metodologik asosini oilaviy tarbiya, ota-onalik mas'uliyati, bola ijtimoiylashuvi va zamonaviy pedagogik yondashuvlarga oid ilmiy-nazariy qarashlarni tahlil qilish tashkil etdi. Tadqiqot jarayonida nazariy tahlil, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, pedagogik kuzatishlar asosida shakllangan ilmiy xulosalarni tizimlashtirish hamda normativ-huquqiy hujjatlarni o'rganish usullaridan foydalanildi.

Tahlil jarayonida oilaning bolaning birlamchi ijtimoiylashuv muhiti sifatidagi o'rni, ota-onaning pedagogik madaniyati, oiladagi muloqot xususiyatlari, milliy qadriyatlarning tarbiyadagi ahamiyati, raqamli muhitning bola rivojiga ta'siri va oila, maktab hamda mahalla hamkorligining pedagogik imkoniyatlariga alohida e'tibor qaratildi. Shuningdek, oilaviy tarbiya masalalariga oid pedagogik adabiyotlar, milliy-ma'rifiy meros namunalari hamda ota-onalar uchun ishlab chiqilgan zamonaviy tavsiyalar o'zaro qiyosiy jihatdan ko'rib chiqildi [3; 4; 7].

Tadqiqotning asosiy metodologik tamoyili an'anaviy tarbiyaviy qadriyatlarni zamonaviy bolaning ehtiyojlari va shaxsiy rivojlanish xususiyatlari bilan uyg'un holda ko'rib chiqishga asoslandi. Shu jihatdan bola tarbiyasi faqat nazorat va talablar tizimi sifatida emas, balki bolaning shaxsiy, axloqiy, ijtimoiy va intellektual rivojlanishini qo'llab-quvvatlovchi uzluksiz pedagogik jarayon sifatida talqin qilindi.

Natijalar va muhokama

Zamonaviy oilada bola tarbiyasining nazariy-pedagogik asoslari

Oila pedagogik nuqtayi nazardan bolaning birlamchi ijtimoiylashuv muhiti hisoblanadi. Maktab yoki boshqa ta'lim muassasasiga kelguniga qadar bola ko'plab asosiy xulq-atvor me'yorlari va munosabat shakllarini oilada o'zlashtiradi. U kattalarning bir-biri bilan qanday gaplashishini, nizolarni qanday hal qilishini, mehnatga qanday munosabatda bo'lishini, boshqalarga yordam berish yoki befarq munosabatda bo'lish kabi xatti-harakatlarni, avvalo, kuzatish va bevosita ishtirok etish orqali o'rganadi.

Oila pedagogikasiga oid tadqiqotlarda oilaning tarbiyaviy funksiyasi shaxsning axloqiy, aqliy, estetik, jismoniy va mehnat jihatdan rivojlanishi bilan bog'liq holda izohlanadi [3]. Shu sababli oilaviy tarbiyani faqat bolaga nasihat qilish yoki ma'lum qoidalarni o'rgatish jarayoni sifatida tushunish yetarli emas. Tarbiya bolaning

shaxsiy tajribasi, oiladagi munosabatlari, kundalik faoliyati va kattalarning amaliy namunasi orqali uzluksiz ravishda amalga oshadi.

Masalan, ota-ona boladan telefondan kam foydalanishni talab qilib, o‘zi doimo telefon bilan band bo‘lsa, bolaning ongida og‘zaki talabdan ko‘ra amaliy namuna kuchliroq ta’sir qiladi. Xuddi shuningdek, halollik haqida ko‘p gapirib, kundalik hayotda yolg‘on gapirish bolaning axloqiy qarashlarida qarama-qarshilikni yuzaga keltirishi mumkin. Shu sababli zamonaviy oilaviy tarbiyaning muhim qonuniyatlaridan biri ota-onaning shaxsiy namunasidir.

Bolaning rivojlanishi oiladagi umumiy psixologik muhit bilan ham bevosita bog‘liq. Doimiy janjal, qo‘rquv, haqorat, kamsitish yoki haddan tashqari nazorat mavjud bo‘lgan muhit bolaning o‘ziga bo‘lgan ishonchi va ijtimoiy munosabatlariga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Aksincha, bolaning fikrini tinglash, uning savollariga sabr bilan javob berish, xatosini shaxsiyatiga qarshi hujumga aylantirmaslik va muammolarni muloqot orqali hal qilish sog‘lom oilaviy muhitni shakllantiradi.

Zamonaviy pedagogik qarashlarda bolaning mustaqil shaxs sifatida qabul qilinishi tobora muhimlashmoqda. Bolaning fikri, his-tuyg‘ulari, qiziqishlari va shaxsiy chegaralarini hurmat qilish uning barcha istaklarini bajarish degani emas. Aksincha, bolaga hurmat bilan munosabatda bo‘lish bilan birga, yoshiga mos va aniq chegaralarni belgilash samarali tarbiyaning muhim sharti hisoblanadi. Ijobiy intizomga oid zamonaviy yondashuvlarda ham jazolashdan ko‘ra bolaning xatti-harakatini tushunish, uning oqibatlarini anglashiga yordam berish va maqbul xulq-atvorni shakllantirishga urg‘u beriladi [4].

O‘zbek oilasida milliy qadriyatlar va zamonaviy tarbiya uyg‘unligi

O‘zbek oilasining tarbiyaviy modelini tavsiflovchi muhim jihatlardan biri milliy qadriyatlarning oilaviy munosabatlardagi o‘rnidir. Kattalarga hurmat, ota-onaga ehtirom, qarindoshlik rishtalarini saqlash, mehr-oqibat, qo‘ni-qo‘shnichilik, jamoaviylik va o‘zaro yordam kabi qadriyatlar avloddan avlodga o‘tib kelgan tarbiyaviy tajribaning muhim qismini tashkil etadi. O. Musurmonova ham oilaning ma’naviy muhitini milliy qadriyatlar bilan bog‘liq holda talqin qilib, oilaviy tarbiyaning shaxs ma’naviyatini shakllantirishdagi ahamiyatini ta’kidlaydi [8].

Abdurauf Fitratning “Oila yoki oila boshqarish tartiblari” asarida ham oila masalasi jamiyat taraqqiyoti bilan chambarchas bog‘liq holda qaraladi. Mutafakkir oilaning ma’naviy va ijtimoiy ahamiyatiga alohida e’tibor qaratib, farzand tarbiyasini jamiyat kelajagi bilan bog‘laydi [5]. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarida ham insonning odobi, bilimga intilishi, kattalarga hurmati va jamiyat oldidagi mas’uliyati bilan bog‘liq qarashlar muhim o‘rin tutadi [6].

Biroq milliy qadriyatlarni zamonaviy tarbiya jarayoniga tatbiq etishda ularni mexanik ravishda takrorlash emas, balki ularning tarbiyaviy mazmunini zamonaviy shaxs rivojiga moslashtirish muhimdir. Masalan, “kattaga hurmat” tushunchasi bolaning har qanday vaziyatda o‘z fikridan voz kechishi sifatida emas, balki kattalar

bilan muloqotda odob va hurmatni saqlagan holda o‘z fikrini asoslay olish ko‘nikmasi sifatida talqin qilinishi mumkin.

Xuddi shuningdek, ota-onaga hurmat va itoat tushunchalarini bolaning shaxsiy fikrini butunlay inkor etish bilan tenglashtirish maqsadga muvofiq emas. Zamonaviy oilada ota-ona va bola o‘rtasidagi munosabat tushuntirish, kelishuv va o‘zaro hurmatga asoslangan bo‘lsa, milliy qadriyatlarning insonparvarlik mohiyati yanada to‘liq namoyon bo‘ladi.

Milliy qadriyatlarning pedagogik imkoniyati, ayniqsa, amaliy faoliyat orqali namoyon bo‘ladi. Hashar, qarindoshlarga yordam berish, bemorni ziyorat qilish, mehmon kutish, kattalarga xizmat ko‘rsatish va kichiklarga g‘amxo‘rlik qilish kabi kundalik faoliyatlar bolada hamkorlik, mas’uliyat, empatiya va ijtimoiy javobgarlik kabi sifatlarni shakllantirishga xizmat qilishi mumkin. Demak, zamonaviy o‘zbek oilasida milliy tarbiyaning asosiy vazifasi o‘tmish tajribasini aynan takrorlash emas, balki uning insonparvarlik va ijtimoiy ahamiyatga ega jihatlarini zamonaviy shaxs tarbiyasi bilan uyg‘unlashtirishdan iborat.

Ota-onaning pedagogik madaniyati — bola tarbiyasining muhim omili

Oiladagi tarbiya samaradorligi ko‘p jihatdan ota-onaning pedagogik madaniyatiga bog‘liq. Pedagogik madaniyat deganda ota-onaning bolaning yosh va individual xususiyatlarini bilishi, uning ehtiyojlarini anglay olishi, tarbiyaviy vaziyatlarni to‘g‘ri baholashi, muloqot qila olishi, o‘z hissiyotlarini boshqarishi va bolaning rivojlanishiga ongli ravishda ta’sir ko‘rsatishi tushuniladi.

Ota-onaning ma’lumot darajasi uning pedagogik madaniyatini avtomatik ravishda belgilamaydi. Yuqori ma’lumotga ega ota-ona ham bola bilan muloqot qilish yoki nizoli vaziyatlarni hal etishda pedagogik xatolarga yo‘l qo‘yishi mumkin. Shu sababli zamonaviy sharoitda ota-onalik kompetensiyalarini alohida shakllantirish masalasiga e’tibor qaratish zarur.

Bunda ota-onaning bolaning yosh xususiyatlarini bilishi, uning individual qobiliyat va qiziqishlarini ilg‘ashi, samarali muloqot o‘rnata olishi, nizolarni konstruktiv hal qilishi va ijobiy intizom tamoyillaridan foydalanishi muhim. Shuningdek, bolaning mustaqilligini qo‘llab-quvvatlash, uning hissiy ehtiyojlarini tushunish, raqamli muhitdagi faoliyatini oqilona yo‘naltirish, o‘zining shaxsiy xulq-atvorini nazorat qilish hamda maktab va boshqa ijtimoiy institutlar bilan hamkorlik qilish ota-onalik kompetensiyasining muhim tarkibiy qismlaridir [4; 7].

Ota-onalarning pedagogik madaniyatini oshirishda muntazam maslahatlar, ota-onalar uchun tashkil etiladigan qisqa o‘quv kurslari, pedagogik seminarlar, psixologik treninglar va raqamli ta’lim resurslaridan foydalanish samarali vosita bo‘lishi mumkin. UNICEF tomonidan ota-onalar uchun taqdim etilayotgan resurslarda ham bola rivoji, parvarishi, salomatligi va farovonligi bilan bog‘liq masalalarda ilmiy asoslangan ma’lumotlardan foydalanishga katta e’tibor qaratiladi [7].

Oiladagi muloqot va bola shaxsining shakllanishi

Bola tarbiyasida muloqot alohida ahamiyatga ega. Bola o‘zining oiladagi o‘rni, qadr-qimmati va ijtimoiy ahamiyatini, avvalo, ota-onasi bilan munosabatlari orqali his qiladi. Shu sababli ota-onaning bolaga murojaat qilish uslubi uning o‘ziga bo‘lgan munosabati va atrofdagilar bilan muloqotiga ham ta’sir ko‘rsatadi.

“Sen hech narsani bilmaysan”, “sendan odam chiqmaydi”, “falonchining bolasi sendan yaxshi” kabi iboralarning muntazam qo‘llanilishi bolaning o‘ziga bo‘lgan ishonchini pasaytirishi mumkin. Ayniqsa, bolani boshqa tengdoshlari bilan taqqoslash uning individual imkoniyatlarini hisobga olishga xalaqit beradi.

Shu o‘rinda bolaning xatti-harakatini baholash bilan uning shaxsini baholash o‘rtasidagi farqni ajratish muhim. “Sen yomon bolasan” degan baho bolaning shaxsiga qaratilgan bo‘lsa, “Bu qilgan ishing noto‘g‘ri bo‘ldi, keling, uni qanday tuzatishni o‘ylaymiz” tarzidagi yondashuv xatti-harakatning o‘ziga baho beradi. Ikkinchi holatda bola o‘z xatosini anglash va uni tuzatish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Oilaviy muloqotda bolaning fikrini tinglash ham muhim pedagogik vositadir. Tinglash bolaning har qanday talabini bajarish degani emas. Aksincha, ota-ona bolaning fikrini tinglash orqali uning ichki holati, ehtiyoji va muammosini yaxshiroq tushunishga harakat qiladi. Masalan, bola maktabga borishni xohlamayotgan bo‘lsa, uni darhol “dangasa” deb baholash o‘rniga, bunday istakning sababini aniqlashga intilish pedagogik jihatdan samaraliroqdir.

Zamonaviy oilada raqamli muhit va media tarbiya

Bugungi kunda bola tarbiyasini raqamli texnologiyalardan ajratib tasavvur qilish qiyin. Smartfon, planshet, kompyuter, televizor va internet bolaning kundalik hayotining bir qismiga aylangan. Raqamli muhit bolaning ta’lim olishi va rivojlanishi uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Elektron darsliklar, ta’limiy videolar, virtual muzeylar, til o‘rganish platformalari va ilmiy resurslardan oqilona foydalanish bolaning bilim doirasini kengaytirishi mumkin.

Shu bilan birga, raqamli muhitda ayrim xavflar ham mavjud. Noto‘g‘ri axborot, zo‘ravonlik mazmunidagi materiallar, kiberbulling, haddan tashqari o‘yin, nomaqbul reklama, begona shaxslar bilan nazoratsiz muloqot va raqamli qurilmalardan me’yoridan ortiq foydalanish bolaning rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli raqamli tarbiya zamonaviy ota-onalikning alohida yo‘nalishiga aylanmoqda.

Raqamli tarbiya bolaning axborotni tanqidiy baholashi, yolg‘on va ishonchsiz ma’lumotlarni farqlashi, shaxsiy ma’lumotlarini himoya qilishi, internet odobiga rioya qilishi, kiberbulling holatlarini anglay olishi va raqamli vaqtni me’yorlashtirish kabi ko‘nikmalarni qamrab oladi. Bunda ota-onaning vazifasi faqat telefon yoki planshetni olib qo‘yishdan iborat bo‘lmasligi kerak. Muhimi, bolaga raqamli vositalardan ongli, xavfsiz va mas’uliyatli foydalanish madaniyatini shakllantirishdir.

Bu jarayonda ota-onaning shaxsiy namunasi ham katta ahamiyatga ega. Farzandidan telefondan me’yorida foydalanishni talab qilayotgan ota-onaning o‘zi doimo raqamli qurilma bilan band bo‘lsa, tarbiyaviy talabning ta’siri kamayadi.

Demak, raqamli tarbiyaning samaradorligi ham avvalo oiladagi umumiy raqamli madaniyatga bog‘liq.

Oila, maktab va mahalla hamkorligi

Bola tarbiyasini faqat oilaga yuklash ham, uni to‘liq maktab zimmasiga topshirish ham samarali natija bermaydi. Bola bir vaqtning o‘zida oila, maktab, tengdoshlar guruhi, mahalla va axborot makonining ta’sirida rivojlanadi. Shu bois “oila–maktab–mahalla” hamkorligi tarbiyaning izchil va yaxlit tizimini shakllantirishga xizmat qilishi kerak.

Oila bolaning dastlabki axloqiy va ijtimoiy qarashlarini shakllantiradi, maktab uning bilimlari va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantiradi, mahalla esa uning kengroq ijtimoiy muhitga moslashishiga ko‘maklashishi mumkin. Bunday hamkorlikning asosiy sharti bolaning manfaatlarini markazga qo‘yishdan iborat.

Agar ota-ona va o‘qituvchi bola bilan bog‘liq muammolarda bir-birini ayblash bilan cheklansa, tarbiyaviy natijaning samaradorligi pasayadi. Aksincha, muammoning sabablarini birgalikda aniqlash, bolaning individual xususiyatlarini hisobga olish va umumiy pedagogik yondashuvni ishlab chiqish ijobiy natija berishi mumkin. Shu jihatdan oila, maktab va mahalla o‘rtasidagi hamkorlikni faqat tadbirlar o‘tkazish bilan cheklamasdan, bolaning real ehtiyojlari va rivojlanish vazifalariga yo‘naltirish maqsadga muvofiq.

Zamonaviy o‘zbek oilasida bola tarbiyasining dolzarb muammolari

Nazariy manbalar va mavjud pedagogik qarashlar tahlili zamonaviy o‘zbek oilasida bola tarbiyasi bilan bog‘liq bir qator muammolar mavjudligini ko‘rsatadi. Ayrim oilalarda bolani haddan tashqari nazorat qilish, uning mustaqil qaror qabul qilishiga yetarli imkon bermaslik holatlari uchrashi mumkin. Bunday yondashuv tashqi intizomni ta’minlagandek ko‘rinsa-da, uzoq muddatda bolaning mustaqil fikrlashi va mas’uliyat hissining rivojlanishiga to‘sqinlik qilishi ehtimoldan xoli emas.

Bolani boshqa tengdoshlari bilan taqqoslash ham muhim muammolardan biridir. “Falonchining bolasi sendan yaxshi” kabi iboralar ba’zan motivatsiya berish maqsadida ishlatiladi, biroq amalda bolaning o‘ziga bo‘lgan ishonchini pasaytirishi mumkin. Shuningdek, ta’lim natijalariga haddan tashqari e’tibor berilib, bolaning ijodkorligi, ijtimoiy faolligi va hissiy ehtiyojlari ikkinchi planga tushib qolishi ham mumkin.

Raqamli qurilmalardan bolaning bo‘sh vaqtini boshqarish vositasi sifatida haddan tashqari foydalanish, ota-onalarning ish bilan bandligi sababli farzand bilan mazmunli muloqot uchun vaqtning kamayishi ham dolzarb masalalardan hisoblanadi. Bundan tashqari, bobo-buvi, ota-ona va bolaning tarbiya haqidagi qarashlari o‘rtasidagi farqlar ayrim hollarda oiladagi talablarning izchil bo‘lmasligiga olib kelishi mumkin [9; 10].

Shu bilan birga, zamonaviy oiladagi muammolarni faqat ota-onalarning pedagogik savodxonligi bilan izohlash to‘g‘ri emas. Oilaning iqtisodiy sharoiti, ota-onalarning ish bilan bandligi, axborot muhitining tez o‘zgarishi, avlodlar o‘rtasidagi

qarashlar farqi va bolalarning ehtiyojlarining o‘zgarib borishi ham tarbiyaviy jarayonga ta’sir etuvchi omillar sifatida qaralishi lozim.

Oilaviy tarbiyani takomillashtirish yo‘llari. Zamonaviy o‘zbek oilasida bola tarbiyasini takomillashtirish, avvalo, ota-onalarning pedagogik bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirishni talab etadi. Shu maqsadda maktab va mahallalarda ota-onalar uchun muntazam pedagogik maslahatlar, qisqa o‘quv kurslari, psixologik treninglar va amaliy seminarlarni tashkil etish maqsadga muvofiq. Bunday mashg‘ulotlarda bolaning yosh xususiyatlari, samarali muloqot, ijobiy intizom, nizolarni konstruktiv hal qilish, mustaqillikni qo‘llab-quvvatlash hamda raqamli xavfsizlik masalalariga e’tibor qaratilishi lozim.

Shu nuqtayi nazardan, “Ota-onalar universiteti” kabi ta’limiy loyihalarni rivojlantirish, ularni faqat ma’ruza shaklida emas, balki real oilaviy vaziyatlarni muhokama qilish, muammoli holatlarni tahlil qilish va amaliy mashqlar asosida tashkil etish samarali bo‘lishi mumkin. Ota-onaga tayyor nasihat berishdan ko‘ra, unga muayyan vaziyatda qanday pedagogik yo‘l tutishni ko‘rsatish amaliy jihatdan foydaliroqdir.

Oilaviy tarbiyada ota-ona va bola o‘rtasidagi muntazam muloqotni kuchaytirish ham muhim. Kundalik hayotda telefon va boshqa raqamli qurilmalardan holi ravishda suhbatlashish, birgalikda kitob o‘qish, uy yumushlarini bajarish yoki oilaviy masalalarni muhokama qilish bolaning o‘z fikrini erkin ifodalashiga yordam beradi. Bolani boshqa bolalar bilan taqqoslamaslik, uning rivojlanishini avvalgi natijalari bilan qiyoslash, xato qilganida esa jazolashdan ko‘ra xatti-harakatining oqibatlarini tushuntirish ijobiy tarbiyaviy muhitni shakllantiradi.

Bolaga yoshiga mos mas’uliyat yuklash ham uning mustaqilligi va o‘ziga bo‘lgan ishonchini rivojlantiradi. Uy yumushlarida ishtirok etish, o‘z vaqtini rejalashtirish, o‘quv qurollarini tartibli saqlash va kundalik hayotga oid ayrim qarorlarni mustaqil qabul qilish bolada mas’uliyat hissining shakllanishiga yordam beradi. Bunda ota-ona bolaning har bir ishini uning o‘rniga bajarib qo‘yishdan ko‘ra, zarur vaziyatlarda yo‘l-yo‘riq ko‘rsatishi maqsadga muvofiq.

Raqamli tarbiyani ham oilaviy tarbiyaning tarkibiy qismiga aylantirish zarur. Bolani internetdan butunlay ajratish o‘rniga, undagi foydali va zararli kontentni farqlash, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish, begona shaxslar bilan ehtiyotkor muloqot qilish, kiberbulling holatlarida murojaat qilish va raqamli vaqtni oqilona taqsimlash ko‘nikmalarini shakllantirish muhim. Bunday yondashuv ota-onaning nazoratini bolaning raqamli mustaqilligini rivojlantirish bilan uyg‘unlashtirish imkonini beradi [7].

Oila, maktab va mahalla hamkorligini takomillashtirish ham muhim yo‘nalishlardan biridir. Hamkorlikni faqat ota-onalar yig‘ilishi yoki ommaviy tadbirlar bilan cheklamasdan, bolaning individual rivojlanishi bilan bog‘liq masalalarni muhokama qilishga yo‘naltirish lozim. Zarur hollarda pedagog, psixolog, ota-ona va mahalla vakillarining hamkorlikdagi yondashuvi bolaning

muammolarini chuqurroq tushunish va unga mos yordam ko‘rsatish imkonini beradi.

Milliy qadriyatlarni zamonaviy tarbiya mazmuni bilan uyg‘unlashtirish ham istiqbolli yo‘nalish hisoblanadi. Bunda milliy tarbiyaviy an’analar saqlangan holda ularning mazmunini shaxs qadr-qimmati, o‘zaro hurmat, mustaqil fikrlash, tanqidiy yondashuv va zamonaviy ijtimoiy kompetensiyalar bilan uyg‘unlashtirish zarur. Ana shundagina milliy qadriyatlar zamonaviy bolaning hayotiy ehtiyojlariga mos va amaliy tarbiyaviy resursga aylanishi mumkin.

Xulosa. Zamonaviy o‘zbek oilasida bola tarbiyasi murakkab va ko‘p omilli ijtimoiy-pedagogik jarayon bo‘lib, u oilaning ichki munosabatlari bilan bir qatorda maktab, mahalla, tengdoshlar muhiti, ommaviy axborot vositalari va raqamli makon ta’sirida shakllanadi. Shu sababli zamonaviy oilaviy tarbiyani faqat ota-onaning bolaga qo‘yadigan talablari bilan izohlash yetarli emas. Tarbiya bolaning kundalik hayoti, oiladagi muloqot, kattalarning shaxsiy namunasi va u duch keladigan ijtimoiy-axborot muhiti bilan uzviy bog‘liq.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, samarali oilaviy tarbiya modelini yaratishda an’anaviy va zamonaviy pedagogik yondashuvlarni bir-biriga qarama-qarshi qo‘yish to‘g‘ri emas. Milliy qadriyatlarning insonparvarlik, mehr-oqibat, hurmat, mehnatsevarlik va ijtimoiy mas’uliyatga asoslangan jihatlari zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan uyg‘unlashtirilganda bolaning har tomonlama rivojlanishi uchun muhim tarbiyaviy imkoniyat yaratadi.

Ota-onaning pedagogik madaniyati ushbu jarayonning asosiy omillaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Ota-ona bolaning xulqini faqat nazorat qiluvchi shaxs emas, balki uning rivojlanishini qo‘llab-quvvatlovchi pedagogik hamkor sifatida faoliyat yuritishi maqsadga muvofiq. Oilada bolaning fikrini tinglash, uni boshqa bolalar bilan taqqoslamaslik, xatolarini shaxsiy haqoratga aylantirmaslik, yoshiga mos mas’uliyat berish va shaxsiy namuna ko‘rsatish samarali tarbiyaning muhim shartlaridan hisoblanadi.

Raqamli muhitning kengayib borishi esa ota-onalik mas’uliyatining yangi yo‘nalishlarini yuzaga keltirmoqda. Media savodxonlik, axborotni tanqidiy baholash, raqamli xavfsizlik va internetdan mas’uliyatli foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish endilikda oilaviy tarbiyaning ajralmas qismi bo‘lishi kerak. Bunda asosiy maqsad bolani internetdan butunlay cheklash emas, balki uni raqamli muhitda ongli va xavfsiz harakat qilishga tayyorlashdan iborat.

Oila, maktab va mahalla o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish ham tarbiya samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Bunday hamkorlikda asosiy e’tibor kattalarning manfaatlariga emas, balki bolaning rivojlanishi va manfaatlariga qaratilishi lozim. Muammolarni birgalikda tahlil qilish, yagona pedagogik yondashuvni shakllantirish va bolaning individual xususiyatlarini hisobga olish hamkorlikning samaradorligini oshiradi.

Umuman olganda, zamonaviy o‘zbek oilasida bola tarbiyasining istiqbolli modeli uch asosiy tamoyilga tayanishi lozim: milliy qadriyatlarga sodiqlik,

zamonaviy ilmiy-pedagogik yondashuv va bolaning shaxsiy qadr-qimmatini hurmat qilish. Mazkur omillarning uyg‘unligi sog‘lom, mustaqil fikrlaydigan, ma’naviy yetuk, ijtimoiy mas’uliyatli va zamonaviy kompetensiyalarga ega avlodni tarbiyalash uchun muhim ijtimoiy-pedagogik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksi. – Toshkent, 1998.
2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023.
3. Hasanboyeva O. va boshqalar. Oila pedagogikasi. – Toshkent: Aloqachi, 2007.
4. UNICEF Uzbekistan. Parenting Guide on Positive Discipline. – Tashkent, 2026.
5. Fitrat A. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. – Toshkent: Ma’naviyat, 1998.
6. Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig. – Toshkent: Akademnashr, 2015.
7. UNICEF. UNICEF Parenting: Science-backed information for parents. – 2026.
8. Musurmonova O. Oila ma’naviyati – milliy g‘urur. – Toshkent: O‘qituvchi, 1999.
9. Sharopov O. Zamonaviy oilada bola tarbiyasining asosiy omillari (tarbiya jarayonida ota-onaning roli) // Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari. – 2025. – №2. – B. 240–243.
10. Usmonova H. Oilada bola haqqi hisoblangan vaqt me’yorini taqsimlashning ilmiy-pedagogik shart-sharoitlari // Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya. – 2023. – Jild 2, №5. – B. 2–14.

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI

2026-yil
9-son

Muassis - "FAN VA INNOVATSIYA YANGILIKLARI" MCHJ
Jurnal hamkori - «PROFI UNIVERSITY»

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2024-yil 24-may kuni № 454068-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Jurnal 2024-yilda tashkil etilgan, 1 oyda bir marta o'zbek, tojik, qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq, rus va ingliz tillarida nashr etiladi.

Tahririyat manzili: 190110, Toshkent shahri Uchtepa tumani, Bog'iston MFY, 14-mavze, 8-uy.

Telefonlar: +998 90 749 00 00
+998 90 749 77 77
+998 91 902 05 01
E-mail: saen_2024@mail.ru
Jurnal sayti: www.saen.uz
Telegram kanali: **https://t.me/saen_2024**

Maqolada keltirilgan fakt va ma'lumotlarning to'g'riligi uchun mualliflar mas'uldirlar.

"Fan va ta'lim yangiliklari" ilmiy-amaliy jurnali Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining qarori (25.08.2025 y., №374/5) bilan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

ISSN: 3093-8694